

MEVA SABZAVOT EKSPORTIDA LOGISTIK JARAYONLAR VA YUZAGA KELAYOTGAN DOLZARB MUAMMOLAR

Ozugul Yusupova Ravshanbek qizi

TDAU iqtisodiyot yonalishi 2kurs magistiri

Ziyoda Yusupova Xakimjonovna

TDAU Iqtisodiyot yo'nalishi 2-kurs talabasi

Annontatsiya

Ushbu maqolada meva sabzavot eksportida logistik jarayonlar va yuzaga kelayotgan dolzarb muammolar haqida qisqacha ma'lumotlar aytib o'tilgan.

Kalit so'zlar: Meva, sabzavot, jahon bozori, sohani rivojlantirish, chora-tadbirlar, chet davlatlar, tovar, ayrboshlash, ferma, korxonalar.

Quyosh taftiga to'yinib pishgan meva va sabzavotlarimizga jahon bozorida talab yuqori. So'nggi yillarda sohani rivojlantirishga qaratilgan chora-tadbirlar ham jahon bozoriga chiqish imkonini yaratadi. Biroq hali hal etish lozim bo'lgan masalalar ham yo'q emas.

Shu o'rinda aytish kerakki, meva-sabzavotchilik tarmog'ini barqaror rivojlantirish uchun to'g'ridan-to'g'ri xorijiy kapital ishtirokidagi qo'shma korxonalarni ko'paytirish zarur. Buning natijasida yangi muqim ishchi o'rinlari yaratiladi. Jahon bozorida raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqish, qayta ishlash quvvatlari yanada kengayadi.

Shu bilan birga mahalliy eksportchilardan meva-sabzavot mahsulotlarini tashqi bozorga olib chiqishga yuqori kafolat beradigan xorijiy kompaniyalar bilan maqbul sheriklik modelini tanlash zarur.

Eksportni rivojlantirishga bilvosita yoki bevosita to'siq bo'lib turgan bir qator muammolarni hal etish lozim.

Meva-sabzavot eksportini rag'batlantirish. Buning uchun, avvalo, mavjud muammolarni (saqlash, qayta ishlash, logistika va boshqalar) bartaraf etish kerak. Hozirgi vaqtda dehqon, fermerlarning qo'lida ko'p miqdordagi mahsulot qolib ketmoqda. Mahsulotni xorijiy iste'molchiga yetkazib berish (sotish) tizimi to'liq shakllanmagan. Chet davlatlar bilan o'zaro tovar ayirboshlashga oid kelishuvlarga erishish, ularning talabiga javob beradigan meva-sabzavot eksportini rag'batlantirish, "yashil yo'lak"larni yanada kengaytirish, imtiyozli kredit va preferensiyalar berilishi lozim.

Pishiqchilikda narxi juda arzon bo'lib ketadigan va saqlash imkoniyati katta sarf-xarajat talab qiladigan mahsulotlar uchun qayta ishlash korxonalarini ko'paytirish, zamonaviy qayta jihozlash, qayta ishlangan mahsulotni chet ellardagi savdo uylari, konsalting kompaniyalari orqali eksport shartnomalari tuzilishi va yetkazib berilishiga ko'maklashish ham ayni muddao. Buning uchun mutasaddi vazirlik va idoralar tomonidan Xitoy, Pokiston, Rossiya,

Qozog‘iston, Turkiya kabi davlatlarda davlat-xususiy sherikchilik asosida savdo uylarini ochish talab etiladi. Shuningdek, qayta ishlash, saqlash korxonalari va fermerlar o‘rtasida shartnomalar tuzish hamda ularning ijrosini ta‘minlash masalasiga jiddiy e‘tibor qaratish lozim. Chet ellik xaridorning talabiga javob beradigan sabzavot urug‘lari, daraxt ko‘chati yetishtirish va uning sifatini kafolatlovchi tizim yaratish. Eksportbop meva-sabzavotlarni ekish va parvarishlash bo‘yicha hududlarga mos holda olimlar va agronomlar tomonidan texnologik kartalarning ishlab chiqilishi, sifatli urug‘ bilan ta‘minlanishni yo‘lga qo‘yilishi maqsadga muvofiq.

Bu o‘rinda eksportbop ko‘chat navlari va urug‘lar yetkazib beruvchi xo‘jaliklarni har bir tumanda ko‘paytirish va ularni davlat tomonidan moliyaviy qo‘llab-quvvatlash (imtiyozli kredit, bino masalasi, infratuzilma sharoiti va b.) darkor. Meva-sabzavot mahsulotlari yetishtiruvchilar va eksport qiluvchilar to‘g‘risidagi ma‘lumot aks etuvchi veb-sayt va kanallar yaratilishi hamda uni doimiy faoliyat ko‘rsatishini ta‘minlash maqsadga muvofiq.

Tadbirkor, fermerlarimiz xorijga mahsulotlarini sotishda, importyor davlatlar tomonidan mahsulotga qo‘yilayotgan sifat, sertifikatlash, fitosanitariya, qadoqlashga oid va boshqa sifat talablarini o‘rganishlari hamda amaliyotga joriy etishlari lozim. Bu masalada mutasaddi idoralar elchixonasi, eksportni rivojlantirish tashkilotlari, bojxona idoralari aniq ma‘lumot berilishini ta‘minlashi, tegishli axborot ko‘magi ko‘rsatishi lozim. Meva-sabzavot mahsulotlarini xalqaro sifat standartlari bo‘yicha sertifikatlash laboratoriyalari tarmog‘ini tumanlar darajasida tashkil etish soha rivojiga turtki bo‘ladi.

Meva-sabzavot mahsulotini eksportga yetkazishda zamonaviy infratuzilmani rivojlantirish, yo‘l xarajatini qisqartirish. O‘zbekiston to‘g‘ridan-to‘g‘ri dengizga chiqish imkoniyatiga ega emas, shuning uchun tez ayniydigan meva-sabzavotlarini xorijiy iste‘molchiga yetkazib berish hamon dolzarb masala bo‘lib qolmoqda. Buni hal etish transport-logistika tizimini takomillashtirish, xususan, avtomobil, temir yo‘l, havo-yuk transporti tarmog‘ini rivojlantirishga borib taqaladi.

Bugun ushbu tizimlardan foydalanish eksportchilarimizga juda qimmatga tushmoqda. Mutasaddi davlat idoralari eksport yuklarini qo‘shni davlatlardan temir yo‘l, avtomobil yo‘llari orqali imtiyozli narxlarda o‘tkazish bo‘yicha muzokaralarga ehtiyoj sezadi. “Uzbekistan Airways” va “O‘zbekiston temir yo‘llari” kompaniyalari tovarlarimizni eksport qilish bo‘yicha zamonaviy logistika yo‘nalishlarini yaratishlari zarur.

Ayni paytda avtomobil xalqaro yuk tashuvlari tizimini jahon bozorida raqobatbardoshligiga erishish, meva-sabzavot tashuvchi avtoullovlar parkini kengaytirish, “Yevro 5” standartiga javob beradigan zamonaviy sovutgichli, izotermik furalar soni va sifatini keskin ko‘paytirish chora-tadbirlarini ko‘rish lozim.

Eksportga yo‘naltirilgan meva-sabzavot mahsulotlarining turlari, hajmlari, summasi va yetishtirish hududlari kesimi to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni, shuningdek, eksport jarayonining barcha bosqichlarini real vaqt rejimida kuzatish imkonini beruvchi bunday portalning ishga

tushirilishi ham eksportchilar uchun birmuncha qulaylik yaratadi. Tashqi bozorlarni o'rganish bo'yicha marketing tadqiqotlarini olib boruvchi konsalting xizmatlarini rivojlantirish va ularning materiallarini internet-sayt va kanallarda e'lon qilish ham bu masalani hal etishga qisman bo'lsada ijobiy hissa qo'shadi.

Mahsulot tayyorlash va eksportni moliyalash sohasidagi masalalarni hal etish. Xorijiy hamkorlar odatda mahsulotni yirik miqdorda ulgurji asosda sotib olish uchun buyurtma qiladi. O'rta holdagi fermer yoki tadbirkor 200-300 tonnalik mahsulotni bir o'zi yetishtirishi qiyin. Shu tufayli eksport kontrakti bo'yicha buyurtmani bajarish uchun ko'plab dehqonlar, tomorqa yer egalari va dehqon bozorlaridan mahsulotni yig'ishga harakat qiladi. Bu esa tovar konditsiya – sifati, navi va hokazolarning turli xilligiga olib keladi va tegishli tarzda har doim ham xaridor xohlagan sifat, o'lchamdagi tovar tayyorlashga imkon bermaydi.

Ushbu masalani ijobiy hal etish uchun birinchi navbatda xorijiy hamkorlar talabiga muvofiq eksportbop tarzda kallibrovkaga keltirilgan ko'p miqdorda meva-sabzavot yig'ish va uni qayta ishlash imkoniyatiga ega maxsus jihozlangan meva-sabzavot terminallari sonini ko'paytirish yuzasidan chora-tadbirlar ko'rish talab etiladi. Meva-sabzavot terminallarini jihozlash uchun chetdan texnika va texnologiyalar olib kelayotgan tadbirkorlarga bojxona imtiyozlari yanada kengroq qo'llanishi va moliyaviy ko'mak berilishi ayni muddao.

Ushbu terminallar eksport yuki ortish uchun mo'ljallangan transport partiyalari (konteynerlar, yuk tashishga mo'ljallangan (sovutgichli) avtomobil furalari, vagonlar turkumi) ga ega logistik markazlar bilan birga faoliyat yuritishi maqsadga muvofiq. Masalan mosh xarid qilmoqchi bo'lgan xitoylik hamkorlar birinchi navbatda o'zbekistonlik sotuvchidan meva-sabzavot, shu jumladan, moshni yig'ish va qayta ishlash (kallibrovka qilish, qoplarga qadoqlash) imkoniyatiga ega terminal bor-yo'qligi bilan qiziqishi tabiiy. Chunki u ham xaridor sifatida buyurtmasi o'z vaqtida va sifatli bajarilishidan manfaatdor.

Mahsulot imijini yaratish. Yurtimizdan chet elga sifatsiz mahsulot jo'natgan va reklamatsiya olgan tashkilot, fermerlar ro'yxati (reyestri) yaratilishi joiz, toki boshqa chet ellik xaridorlar aldanib qolishi yoki sifatsiz mahsulot xarid qilishiga yo'l qo'yilmasligi lozim.

Asosiy savdo sheriklarimiz bo'lgan davlatlarning karantin, fitosanitariya, sertifikatlashtirish xizmatlari bilan hamkorlik to'g'risida kelishuvga erishish. Bu ushbu davlatlarga mahsulot yetkazib berilgach, bojxona va sertifikatlash idoralarida vujudga kelishi mumkin bo'lgan muammolarning oldini olish, tegishli hujjatlarni o'z vaqtida rasmiylashtirish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Meva va sabzavotchilik tarmog'ini rivojlantirish.
2. 2022-2026- yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyoti.